

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:

BD- 60230100 – 1.17.

“ ” 2024-yil,



“O‘ZBEK TILI TARIXI”

FANINING

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200000 – San‘at va gumanitar fanlar

Ta‘lim sohasi: 230000 – Tillar

Ta‘lim yo‘nalishi: 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili

Fan/modul kodi 3020`TT3 14		O`quv yili 2024-2025	Semestr 5-6	ECTS - Kreditlar 8+6 (umumiy 14)	
Fan/modul turi Majburiy		Ta`lim tili O`zbek		Haftadagi dars soatlari 6+6=12 soat	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg`ulot- lari (soat)	Mustaqil ta`lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	O`zbek tili tarixi	180	240	420	

FANNING MAZMUNI

I. O`quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta`limdagi o`rni

O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o`zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to`g`risida”gi farmoni, “Ta`lim to`g`risida”gi Qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”dan kelib chiqqan holda o`zbek tili tarixi sohasining predmeti, vazifalarini yoritish, fan doirasida o`rganiladigan asosiy masalalarning mazmun mundarijasini belgilash, tilshunoslik tarixining eng muhim sahifalari borasida tasavvur hosil qilish, til tarixiga bag`ishlangan ma`ruzalar o`qish o`z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

II. O`quv fanining maqsadi va vazifasi

“O`zbek tili tarixi” fanini o`qitishdan maqsad shuki, o`zbek tilining bir necha yuz yillik shakllanish va taraqqiy etish dinamikasini kuzatish, eski o`zbek yozuvi, tarixiy grammatika, davrlar osha yetib kelgan qo`lyozma manbalar va ularning mavjud nashrlaridagi ashyoviy materiallarga suyangan holda fonetik, morfologik, leksik hamda sintaktik xususiyatlari haqida bilim berishdir.

Fanning vazifasi talabalarda “O`zbek tili tarixi” fani tarkibidan o`rin olgan “Eski o`zbek yozuvi”, “O`zbek tilining tarixiy grammatikasi” va “O`zbek adabiy til tarixi”ning vujudga kelishi hamda rivojlanishi bo`yicha bilimlarni shakllantirish va mustahkamlash; arab alifbosiga asoslangan eski o`zbek yozuvi, VII-X asrlarga oid O`rxun-Enasoy bitiklari, XI-XIV asrlarda yaratilgan eski turkiy til manbalari hamda XV-XIX asrlarga taalluqli eski o`zbek adabiy tili yodgorliklari fonetikasi, morfologiyasi, leksikasi va gap qurilishi haqida bilim berishdan iborat.

Fan bo`yicha talabalarning bilim, ko`nikma va malakalariga quyidagi talablar qo`yiladi. *Talaba:*

“O`zbek tili tarixi” fani bo`yicha bakalavr ko`k turk yozuvi bitiktoshlari, qadimgi turk-moniy yozma yodgorliklari, turk-budda diniy-falsafiy asarlari va ularning til xususiyatlari, O`rta Osiyo xalqlari yozuvi tarixi, arab yozuvi va uning joriy qilinishi haqida *tasavvurga ega bo`lishi*;

-til tarixi masalalariga doir metodlarni, kichik matnlarni fonetik, grammatik tahlil qilishni, eski o`zbek yozuvi alifbosi va uning imlo qoidalarini, qo`lyozma matnlarni o`qish va yozishni, ta`rih san`ati asosida mutafakkirlarning tug`ilgan sanalarini aniqlashni *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

-tarixiy tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalarini tahlil qilish, o`zbek tili tarixini davrlashtirish masalasiga munosabat bildirish, eski turkiy adabiy til va uning yodgorliklarini tavsiflash, eski o`zbek adabiy tili va shu tilda bitilgan yozma manbalarni tahlil qilish, o`zbek tilining fonetik, leksik, grammatik taraqqiyotiga doir ma`lumotlarni umumlashtirish, o`zbek adabiy tilining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, o`zbek adabiy tilining qardosh turkiy tillar bilan munosabatini faktik material asosida yoritish *ko`nikmalariga ega bo`lishi kerak*.

III. ASOSIY NAZARIY QISM (MA`RUZA MASHG`ULOTLARI) FANNING NAZARIY MASHG`ULOTLARI MAZMUNI

O`ZBEK ADABIY TILI TARIXI

1-MODUL. O`ZBEK TILI TARIXI. UNING O`RGANILISHI. YOZUV TIZIMI.

1-MAVZU. O`ZBEK TILI TARIXI FANI MANBALARI. GRAFIKA.

O`zbek tilining o`rganilish tarixi. O`zbek adabiy tili tarixi predmeti, adabiy til, uning ta`rifi, me`yorlashtirilgan til ekanligi, yozma va og`zaki shakllari, «O`zbek adabiy tili tarixi» yozma adabiy til tarixini o`rganishi. Adabiy til va uning tayanch dialekti tushunchasining tarixiy tushuncha ekanligi. Adabiy til va so`z san`atkorlari. Adabiy tilning an`ana, ijtimoiy ong va ijtimoiy turmush taraqqiyoti bilan bog`liq ravishda takomillashib borishi. Adabiy tilga davlat ahamiyatining berilishi. Adabiy tilning taraqqiyoti darajasi xalq madaniyati taraqqiyoti darajasini bildirishi.

Adabiy tilning yozma va og`zaki shakllari. Adabiy tilni tarixiy-uslubiy jihatdan o`rganish. Adabiy til uslublari.

2-MAVZU. O`ZBEK TILINING TARIXIY FONETIKASI.

O`zbek tili fonetik xususiyatlari tarixini o`rganishda “Devoni lug`otit turk” va boshqa asarlarning o`rni. Eski o`zbek unililar tizimi, uning harfiy ifodalanishi, unli va undosh tovushlarning tarixiy taraqqiyoti. Singormonizm. Uning turlari.

2-MODUL. ESKI O'ZBEK TILINI MORFOLOGIK TUZILISHIDAGI O'ZGARISHLAR

3-MAVZU. O'ZBEK TILINING TARIXIY MORFOLOGIYASI. OT SO'Z TURKUMI.

Otlarda grammatik kategoriya. Ko'plik shakllari. -lar shaklining turli shakllari. Egalik va kelishik kategoriyalari. Kelishiklar va ularning taraqqiyoti, vosita kelishigi. Bog'lamalar va lug'aviy shakllar.

4-MAVZU. SIFAT VA SON SO'Z TURKUMLARI.

Sifatning taraqqiyoti, morfologik belgilari, asliy va nisbiy sifatlar, eski o'zbek tilida sifat, sifatning yasalishi. Sonning tarifi, numerativ so'zlar. Sanoq sonning turlari, Sonning taraqqiyoti. Ikkilangan undosh tovushlar tizimidagi o'zgarishlar.

5-MAVZU. OLMOSH VA RAVISH SO'Z TURKUMLARI.

Olmoshning ta'rifi, b.s.t. farqi. Turlari, ko'rsatish olmoshlari, arab va fors tili ta'sirida paydo bo'lgan olmoshlar. O'z olmoshining qadimgi turkiy tilda ot so'z turkumiga aloqadorligi. Ravishning ma'no turlari, fe'l va ravishlarda yasalish holati

6-MAVZU. FE'L SO'Z TURKUMI

Bo'lishlilik va bo'lishsizlik, sodda va murakkab fe'llar, Fe'ning funksional formalari, Harakat nomi, sifatdosh va uni hosil qiluvchi vositalar. Yetakchi va ko'makchi fe'llar, to'liqsiz fe'l va uning turlari, mayl va zamon shakllari, tuslovchi shakllarning kishilik olmoshlaridan ko'chganligi. Fe'l yasalishi.

3-MODUL. YORDAMCHI SO'Z TURKUMLARI

7-MAVZU. KO'MAKCHI, BOG'LOVCHI VA YUKLAMALARNING TARIXIY TARAQQIYOTI. ALOHIDA OLINGAN SO'ZLAR

Sof ko'makchilarning ikki guruhga ajratilishi, eski o'zbek tilida qo'llangan ko'makchilar, semantikasi, kuchli o'zgarishga uchragan ko'makchilar. Vazifadosh ko'makchilar, ot, ravish, fe'l ko'makchilar.

Bog'lovchilar, uning tarifi, teng va ergashtiruvchi bog'lovchilarning semantik guruhlari, turkiy va o'zlashma bog'lovchilar, bog'lovchilarning ma'no xususiyatlari, eski o'zbek tilida bog'lovchilar. Yuklamalar, affiks va so'z yuklamalar taraqqiyoti.

Modal so'z tushunchasi, izohi, eski o'zbek tilida qo'llanilgan modal so'zlar va ularning mavzu guruhlari. Undov so'zlar va ularning ma'no guruhlari. Mumtoz

adabiyotda undovlar, turkiy va o`zlashma undovlar. Taqlid so`zlar, ma`no xususiyatlari, bu turkumda so`z o`zlashtirishning kamligi.

4-MODUL. O`ZBEK TILINING TARIXIY SINTAKSISI

8-MAVZU. SO`Z BIRIKMASI VA GAP. GAP BO`LAKLARI

Sintaksis. So`z birikmalari, izofa va uning ko`rinishlari, Gap bo`laklarining uyushish hodisasi, Sintaktik qurilishning qadimgi va hozirgi shakli. Morfologik va sintaktik qurilish munosabati, Sintaktik qurilishga arab, fors tillarining ta`siri masalasi.

9-MAVZU. GAP TURLARI. MURAKKABLASHGAN GAPLAR. KIRITMA IBORALAR BILAN MURAKKABLASHGAN GAPLAR.

Qadimgi turkiy til va eski o`zbek tilidagi sodd gap tiplari, darak, so`roq va buyruq gaplar. Sodda gap turlari. Gapda bosh bo`larlarning ishtirokiga ko`ra turlari.

Yozma manbalar tilida ajratilgan bo`laklar, undalma, kirish so`zlar, kirish birikma, kirish gaplarning qo`llanilishi. Semantik guruhi, tarkibiy xususiyatlari. Fors va arab tilining ta`siri.

Kiritma va izoh iboralar, ularning o`zaro farqlanishi, semantik guruhi, tarkibiy xususiyatlari. O`zi izohlaydigan so`zga sintaktik jihatdan bog`lanishi, ularning qo`shma gapga munosabati masalasi.

10-MAVZU. QO`SHMA GAP. KO`CHIRMA GAPLAR.

Qo`shma gap turlari, Bog`langan qo`shma gaplar, Ergashgan qo`shma gaplar, Bog`lovchisiz qo`shma gaplar. Qo`shma gaplarning sintaktik-semantik xususiyatlari.

Eski o`zbek tilida ko`chirma gaplarning shakllanishi, ularning bog`lovchili va bog`lovchisiz turlari

O`ZBEK ADABIY TILI TARIXI

5-MODUL. O`ZBEK ADABIY TILI TARIXINING NAZARIY ASOSLARI. ADABIY TIL.

11-MAVZU. ADABIY TIL RIVOJLANISHINING IJTIMOIIY-TARIXIY VOQEALAR BILAN BOG`LIQLIGI. ADABIY TIL TURLARI. USLUBLAR TARAQQIYOTI.

O`zbek adabiy tili tarixi, predmeti, adabiy til, uning tarifi, og`zaki va yozma shakllar, Yozma adabiy til tarixini o`rganish, adabiy til va dialektlarning tarixiy munosabati, adabiy tilning ijtimoiy ong, jamiyat bilan taraqqiy etishi. Adabiy tilga davlat ahamiyatining berilishi. Milliylik va siyosiylikning tilga munosabati.

Adabiy tilning taraqqiyot darajasi xalq madaniyati taraqqiyot darajasini bildirishi. Adabiy til uslublari.

12-MAVZU. O'ZBEK ADABIY TILINING SHAKLLANISHIDA BOSHQA TIZIMDAGI TILLARNING O'RNI. O'ZBEK TILINING TARIXIY ILDIZLARI VA ETNOGENEZI. O'ZBEK XALQI VA TILINING NOMLANISH TARIXI

O'zbek adabiy tilining boshqa tillarga munosabati. Uning tarixiy ildizlari. O'zbek adabiy tili va turkiy adabiy tillar. Turkiy til oilasi. O'zbek adabiy tilining boshqa turkiy adabiy tillarga fonetik, leksik va grammatik jihatidan o'xshash va ulardan farqli xususiyatlari.

O'zbek adabiy tili va fors tili. O'zbek va fors-tojik xalqlarining azaldan aralash yashab kelganligi, ular madaniyati, e'tiqodidagi yaqinliklar. Forsiy adabiy til an'anasi, fors-tojik adabiyotining o'zbek mumtoz adabiyotiga ta'siri, uning tarixiy sabablari. Forsiy til leksik qatlaminig o'zbek adabiy tilida tutgan o'rni, uning o'zbek tili fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisiga ta'siri. O'zbek tilining o'z navbatida forsiy tilga ta'siri.

O'zbek adabiy tili va arab tili. Arab tilining o'zbek tiliga bevosita va bilvosita (forsiy til orqali) ta'siri, islom dini orqali Markaziy Osiyo, Volga bo'yi xalqlari ma'rifati tiliga aylanganligi. «Arab kitobiy tili» tushunchasi. Arab tili o'zbek adabiy tilining so'z o'zlashtirish manbai ekanligi, o'zbek tilida arabcha morfologik va sintaktik unsurlarning qo'llanishi.

O'zbek adabiy tili va rus tili. Rus tili unsurlarining XIX asming 2-yarmidan boshlab qo'llana boshlashi, uning qisqacha tarixiy sabablari. O'zbek tili lug'at tarkibi va fonetik, morfologik tizimida ruscha-baynalmilal unsurlarning qo'llanish xususiyatlari.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida turkiy tillarning o'rganilishi. Rus turkologlarining turkiy tillarga oid tasniflari. O'zbek xalqi va tilining nomlanish tarixi: turk, chig'atoy, sart, o'zbek atamalarining qo'llanilish tarixi va ilmiy asoslanishi. O'zbek etnonimining paydo bo'lishi va iste'molga kirishi. O'zbek manbalarda qo'llanishi.

6-MODUL. O'ZBEK ADABIY TILINING DAVRLASHTIRILISHI. ADABIY TILNING TAYANCH DIALEKTI MASALASI

13-MAVZU. O'ZBEK ADABIY TILINING QADIMGI TURKIY DAVRI

O'zbek adabiy tili va qadimgi turkiy til. Turk hoqonligi davridagi matnlarning adabiy normalari va ularning keyingi davrdagi taraqqiyoti. Turkiy run yozuvlari, uyg'ur va boshqa yozuv yodgorliklari haqida umumiy ma'lumot.

14-MAVZU. ESKI TURKIY ADABIY TIL DAVRI

O`zbek adabiy tili va eski turkiy til. Arab va uyg`ur yovidagi manbalar, ularda adabiy me`yor masalasi.

d (dz) dialekti taraqqiyoti, «d» lashishning yodgorliklari bo`yicha qo`llanish xususiyatlari, «d» (dz)lashgan dialektning adabiy til an`anasi bo`lganligi va XIV asr boshlariga kelib bu an`ananing o`zgarishi va «y»lashgan dialekt adabiy tilning tayanch dialektiga aylanishi.

XII-XIV asrlardagi adabiy tilning taraqqiy etishida tarixiy voqealarning ahamiyati, bu davrdagi adabiy tilning «Qoraxoniylar», «Oltin O`rda», «Chig`atoy» nomlari bilan yuritilishining sabablari, qarluq-uyg`ur, qipchoq-o`g`uz unsurlarining adabiy manbalarda aks etishi, bu davrda yaratilgan Yusuf Xos Hojibning «Qutadg`u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq», Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat», Rabg`uziyning «Qissasi Rabg`uziy», «Qissai Yusuf», «O`g`uznoma», «Tafsir» asarlarining tili va uslubi tahlili. «Xisrav va Shirin» dostonining til xususiyatlari.

7-MODUL. ESKI O`ZBEK TILI YODNOMALARI TILI VA USLUBI.

15-MAVZU. ESKI O`ZBEK ADABIY TILI MANBALARI VA ULARNING TIL XUSUSIYATLARI.

Eski o`zbek tili terminining qo`llanish sabablari, bu davrda yaratilgan badiiy, tarixiy asarlarga qisqacha tavsif, eski o`zbek adabiy tilining xronologik doirasi, uning tayanch dialekti haqidagi munozaralar tahlili. Eski o`zbek tilida fors-tojik va arab tili unsurlarining XIV-XVI asrlarda yanada ko`payib ketishi, uning ijtimoiy-madaniy sharoiti, adabiyotdagi forsiy til an`anasining taraqqiy etishi turkiy tildagi badiiy adabiyotning va shu bilan birga adabiy tilning taraqqiyotiga salbiy ta`sir etganligi.

XIV asrning 2-yarmidan keyingi adabiy harakatchilik va uning o`zbek adabiy tili taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo`lganligi. Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asari, uning eng muhim til xususiyatlari, uslubi. Xorazmiy asarlari tilining keyingi davr adabiy tili taraqqiyotiga ta`siri. Alisher Navoiyning bu asar tiliga murojaat qilishi.

Eski o`zbek adabiy tili taraqqiyotida Durbek. Atoiy, Gadoiy, Sakkokiy va Lutfiylarning o`mi. Ular ijodida eski turkiy til unsurlari bilan birga jonli til xususiyatlarining joy olganligi, davrga xos adabiy normalarning vujudga kela boshlashi.

**16-MAVZU. ALISHER NAVOIY - O'ZBEK ADABIY TILINI MUMTOZLIK
DARAJASIGA KO'TARGAN SIYMO. ALISHER NAVOIY ASARLARINING TIL
XUSUSIYATLARI**

XV asrning ikkinchi yarmidagi o'zbek adabiyoti va adabiy tilining taraqqiy etishidagi tarixiy sharoit. «Alisher Navoiy – o'zbek tilining asoschisi» iborasining tushunilishi. Alisher Navoiyning Husayn Boyqaro saroyidagi adabiy muhitga rohnamoligi, o'zbek tilidagi badiiy adabiyotni rivojlantirish borasidagi xizmatlari, Alisher Navoiy asarlarida turkiy (o'zbek) til qudratining badiiy ifoda qilinishi. Alisher Navoiy asarlari tilining muhim xususiyatlari va unda o'zbek tili leksik, morfologik va sintaktik normalarining belgilinishi. Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan «turkiy», «turkcha» atamalarining ham o'zbek, ham umumturkiy ma'nolari.

Alisher Navoiy asarlari tilida leksik va grammatik me'yorlar. “Muhokamatul-lug'atayn” asarining o'zbek adabiy tili taraqqiyotida tutgan o'rni. Alisher Navoiy asarlarida arxaizm tushunchasi. «Muhokamatul lug'atayn» asari tilshunoslik asari sifatida, unda so'z qudrati, arab va fors tillariga bildirilgan munosabat, tillarning kelib chiqishi, fors-tojik va turkiy (o'zbek) tillari qiyosiy tahlili, o'zbek tilining eng muhim fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari haqidagi, badiiy til mahorati haqidagi ma'lumotlar tahlili. Alisher Navoiy asarlari tilining o'z davrida va undan so'ng o'rganilishi. Uning asarlari bo'yicha tuzilgan lug'atlar va grammatik asarlar.

**17-MAVZU. BOBUR VA MUHAMMAD SOLIH ASARLARINING TIL
XUSUSIYATLARI**

O'zbek adabiy tili taraqqiyotini o'rganishda Bobur qarashlarining ahamiyati. XVI asrda Alisher Navoiy an'anasining davom etishi. Zahiriddin Muhammad Bobir asarlari tili. Boburning nazmiy asarlarida turkiy so'zlar badiiy qiymatining yanada oshishi. «Boburnoma» - XVI asr adabiy tilining eng muhim manbasi sifatida. “Xatti Boburiy”ning ahamiyati.

Muhammad Solih asarlari tili – XVI asr dostonlari tilining namunasi. Uning eng muhim fonetik, leksik, grammatik xususitlari. Tarixiy dostonchilikda til va uslub masalasi.

8-MODUL. XVII - XIX ASR BOSHLARI O'ZBEK ADABIY TILI

18-MAVZU. XVII-ASR XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA O'ZBEK ADABIY TILI

XVII-XIX asrlar adabiy tilining «demokratlashuvi» tushunchasiga izoh, adabiy tilga xalq so'zlashuv tili ta'sirining kuchayishi. Bu davrlarda yashab ijod etgan Turdi, Nishotiy, Maxmur, Gulxaniy, Abulg'ozzi Bahodirxon Munis, Ogahiy, Feruz, Mashrab asarlari tilining eng muhim xususiyatlari, uslubiy o'zgaliklari.

XVII-XX asrlarda tarixiy, ilmiy asarlarning yaratilishi, lug'atchilik taraqqiyoti. Bu davrda yaratilgan lug'at va grammatik ocherklar tavsifi. Gazeta-publitsistika uslubining shakllanishi. O'zbek tili leksikasi, grammatikasi va funksional uslublaridagi o'zgarishlar.

O'zbek xalq adabiy tilining so'nggi davri, uning O'rta (Markaziy) Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olingandan so'ng to inqilobgacha bo'lgan davr bilan belgilanishi. Bu davrning ijtimoiy-tarixiy sharoitiga qisqacha tavsif. Davr madaniy taraqqiyoti haqida ma'lumot.

XIX asrning 2-yarmidan inqilobgacha bo'lgan davr tilining umumiy tavsifi. So'z o'zlashtirish manbasining ko'payishi: rus va rus tili orqali o'zlashgan so'zlar.

Bu davrda o'zbek adabiy tilining boyish manbalari va usullari: mahalliy dialektlar (xalq so'zlashuv tili), so'z o'zlashtirish, kalka, semantik neologizmlar va boshqalar.

O'zbek adabiy tilida gazeta-publitsistik uslubning paydo bo'lishi va o'ziga xosligi.

Bu davrda umummilliy tilni yaratish sohasidagi urinishlar: panturkizm, panislamizm, ularning sotsial manbalari.

XIX asrning 2-yarmida vaqtli matbuot va ayrim adabiy asarlar tilida anarxiyaning-jargonlar, varvarizm, tatarizm, turkizm hamda dialektizmlarning avj olib ketganligi, ularning sabablari.

19-MAVZU. ADABIY TILNING TAKOMILIDA LUG'AT VA GRAMMATIK ASARLARNING O'RNI

O'zbek lug'atchilik tarixi. "Devoni lug'at it-turk" asari ilk lug'atchilikning noyob namunasi. Lug'atchilik an'anasining keyingi davrlardagi taraqqiyoti. Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan lug'atlar.

O'zbek adabiy tilining takomilida grammatik asarlar. "Turkcha qoida asari"ning ahamiyati.

20-MAVZU. ADABIY TILNING XX ASRDAN KEYINGI TAKOMILI. RUSCHA-INTERNASIONAL SO'ZLARNING KIRIB KELISHI

20-yillar o'zbek adabiy tili, uning grafik, fonetik, morfologik va sintaktik qurilishdagi o'zgarishlar. Bu davrning imlo tizimi, bunda «Chig'atoy gurungi» tashkilotining tashabbuskorligi. 20-yillar o'zbek tilshunosligida davr adabiy tilining aks etishi. O'zbek tili leksik tarkibi. Bu davrdagi o'zbek tilining tayanch dialekti. So'z tanlash va uslub masalasi, lotin alifbosiga o'tish davridagi munozaralar.

30-yillar o'zbek adabiy tiliga tavsif. Rus va baynalminal fonetik va grammatik unsurlarning o'zbek tilida kengroq qo'llana boshlashi.

20-30-yillar o'zbek adabiy tilini o'rganishda Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Elbek, A.Avloniy kabi shoir va yozuvchilar asarlari tilining ahamiyati.

21-MAVZU. YANGI O'ZBEK ADABIY TILI.

Yangi o'zbek adabiy tili. O'zbek adabiy tili normalarini belgilashda tayanch dialektning o'rni. Ko'p dialektlilik sharoitida tayanch dialektni aniqlash. Adabiy til normalarini belgilashda orfografiya va orfoepiyaning ahamiyati.

O'zbek adabiy tili va davlat tili. O'tmishda ham o'zbek adabiy tiliga davlat tili maqomining berilganligi (Husayn Boyqaro).

Mustaqillik sharoitidagi davlat tilining mavqei.

AMALIY MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishdan maqsad maruza materiallari bo'yicha talabalar bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish, hamda kengaytirishdan iboratdir. Shu maqsadda hamma mavzularga doir va yetarli miqdordagi masalalar echish nazarda tutiladi.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar turli o'tilgan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy masalalarni o'rganadilar. Shuningdek, darslik va qo'llanma, internet ma'lumotlari vositasida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqama materiallaridan foydalanish kabi o'qitish usullaridan qo'llash orqali mustaqil fikrlash ko'nikmasi shakllantiriladi.

1. O'rxun yozuvi va uning yodgorliklari.
2. Enasoy va Talas yodgorliklari.
3. O'rxun-Enasoy yozuvi alifbosi jadvalini tuzish, ko'p variantli harfiy belgilarga izoh berish.
4. Uyg'ur yozuvi va uning bitiktoshlari.
5. Qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tili unlilar tizimi, undagi miqdoriy va sifat o'zgarishlar.
6. Otlarning yasalishi.
7. Sifatlarning yasalishi.
8. Son turlari. Qadimgi turkiy tillarda sanoq, jamlovchi, tartib sonlar, numerativ so'zlar.
9. Olmosh turlari. Kishilik, o'zlik, so'roq olmoshlari.
10. Fe'l dagi bo'lishli va bo'lishsizlik, mumkinlik va nomumkinlik. Fe'l darajalari, yasalishi.
11. Ravish yasalishi.
12. Ko'makchilar, bog'lovchilar, yuklamalar, undovlar.
13. So'z birikmalari.

14. Gap bo`laklari. Gapning mazmuniga ko`ra turlari.
15. Eski o`zbek yozuvi harfiy belgilarini hosil qiluvchi shakllar.
16. Eski o`zbek yozuvining alohida shakllari.
17. Unli tovushlarning yozuvda ifodalanishi.
18. Mustaqil so`z turkumiga xos jihatlar.
19. Yordamchi so`z turkumlarining funksiyasi.
20. Ismdan ot yasovchi affikslar paradigmasi.
21. Fe`ldan ot yasovchi affikslar paradigmasi.
22. Qadimgi turkiy tilda tarkibli sanoq sonlarning atalishi.
23. O`zlik olmoshlarning qadimgi kend shakli.
24. Ravishdosh hosil qiluvchi affikslar.
25. Fe`l yasashda mahsuldor affikslar. Shart fe`lining analitik shakllari.
26. Ravishning yasaliş usullari.
27. Tobe birikmalar va ularning turlari.
28. Vositali va vositasiz to`ldiruvchilar va holning ifodalanish yo`llari.
29. O`zbek tili tarixini davrlashtirish xususida o`zbek tilshunoslari dunyoqarashi.
30. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi rus turkologlarining turkiy tillarga oid tasniflari.
31. Turk, chig`atoy, sart, o`zbek atamalarining qo`llanilish tarixi va ilmiy asoslanishi.
32. Turkiy tillar, jumladan, o`zbek tilining qardoshligi masalasi.
33. Arab, fors-tojik va rus tillarining o`zbek tiliga ta`siri.
34. Qadimgi turkiy tilning o`zbek adabiy tili taraqqiyotidagi roli.
35. M.Koshg`ariyning turkiy dialektlar haqidagi qarashlari
36. “Qutadg`u bilig” va “Hibat ul-haqoyiq” asarlarining til xususiyatlari hamda ilmiy o`rganishi
37. A.Yassaviyning “Devoni hikmat” asari va uning tili
38. Oltin O`rda adabiy tili yozma yodgorliklaridan “Muhabbatnoma”, “Guliston bit-turkiy” asarlarining til xususiyatlari
39. “Qisasi Rabg`uziy”, “Xusrav va Shirin” asarlarida qadimgi kitobiy til hamda “og`uz-qipchoq” unsurlarining aks etishi
40. Eski o`zbek adabiy tili davrida yaratilgan badiiy asarlar tiliga xos lisoniy normalarning vujudga kela boshlashi.
41. “Muhokamat ul-lug`atayn” asarining tilshunoslikdagi o`rni
42. “Boburnoma”da turli sohalarga oid so`zlarning ishlatilishi
43. XVII-XIX-asrlar adabiy tiliga xalq so`zlashuv tilining ta`siri
44. Eski va yangi o`zbek tili davrida yaratilgan lug`atlar uslubiyati

45. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida o'zbek adabiy tilining grafik, fonetik, morfologik va sintaktik qurilishidagi o'zgarishlar.

Izoh: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda tanlab foydalanish, mavzuga doir adabiyotlarning mavjudligiga e'tibor berish tavsiya etiladi.

V. Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish

Seminar mashg'ulotlari talabalarni turkiy xalqlar adabiyotiga oid ma'lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni ilmiy-nazariy nuqtai nazaridan tahlil va talqin etishga yo'naltiradi. Talabalar egallagan bilimlarini dars chog'ida munozara yoki ma'ruza shaklida himoya qiladi. Seminar mashg'ulotlarida talabalar fan bo'yicha ilmiy muammolari to'g'risida amaliy ko'nikma va malaka hosil qiladilar.

1. Qadimgi turkiy til leksikasi ustida ishlash.
2. Bitiktoshlardan birini tanlab, talaba qiziqqan sohaga oid so'zlarni to'plash.
3. Biror kichik matnni fonetik tahlil qilish.
4. Muayyan kichik matn grammatik jihatda tahlil qilish.
5. Bitiktoshlardan birini tanlab, kishi nomlari (antroponim) va joy nomlari (toponim) ga oid so'zlarni to'plash.
6. Unlilar hamda undoshlar tizimi, ularga xos xususiyatlar.
7. Otlarda egalik, ko'plik, kelishik kategoriyalari.
8. Sifat turlari va darajalari.
9. Son turkumi paradigmasi.
10. Fe'ning grammatik-funksional shakllari.
11. So'z yasalishi. Affiksatsiya va kompozitsiya.
12. Tobe birikma, teng birikma.
13. Gapda bosh bo'laklarning ifodalanishi.
14. Gapda ikkinchi darajali bo'laklari va ularning ifodalanishi.
15. Manbadan mavzuga doir misollar to'plash, izohlash.
16. Raqamlardan so'z va jumlarlar hosil qilish.
17. Otlarda egalik kategoriyasi.
18. Otlarda ko'plik kategoriyasi.
19. Otlarda kelishik kategoriyasi.
20. Olmoshlarning turlari.
21. Sonlarning ifodalanishi.
22. Sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi.
23. So'z yasalishi. Affiksatsiya va kompozitsiya.
24. Tarixiy sintaksisga xos jihatlar.

25. Yordamchi va alohida olingan soʻz turkumlarining shakllanishi.
26. Soʻz birikmalari va ularning turlari.
27. Gapda bosh va ikkinchi darajali boʻlaklarning ifodalanishi.
28. Gap va uning turlari.
29. Murakkablashgan gaplar. Koʻchirma gap shakllari.
30. Oʻzbek tili leksikasida qadimgi turkiy tilga xos unsurlarning qoʻllanilishi.
31. XI-XII asrlar adabiy tilida d-lashish va y-lashish hodisalarining parallel ravishda qoʻllanilishi.
32. Ilk davr oʻzbek adabiy tilining turkiy adabiy til tarkibida taraqqiy etganligi.
33. Qadimgi turk davri va unda oʻzbek tili xususiyatlari.
34. M.Zamaxshariyning lingvistik qarashlari.
35. “Devoni lugʻotit turk” asari va turkiy tillarni qiyosiy oʻrganish metodi.
36. “Oʻgʻuznoma” dostonining til xususiyatlari.
37. “Tafsir” asarining til xususiyatlari.
38. Qarluq-Xorazm adabiy tili.
39. Oltin Oʻrda davlatida til vaziyati.
40. Temuriylar saltanati davlatida til vaziyati.
41. Mamluklar davrida turkiy tilning mavqeyi.
42. XII-XIV-asrlar adabiy manbalarining yangi adabiy janrlar hisobiga boyishi.
43. A.Navoiy asarlari tili va uslubi, uning davr adabiy muhitiga taʼsiri.
44. Boburning tilshunoslikka oid qarashlari.
45. XV-XIX asrlar oʻrtasida lugʻatchilik.
46. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida milliy til tushunchasi.
47. Muqumiy, Furqat, Zavqiy asarlarining tili.

Izoh: Mazkur roʻyxatdagi mavzulardan seminar mashgʻulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda tanlab foydalanish, mavzuga doir adabiyotlarning mavjudligiga eʼtibor berish tavsiya etiladi.

VI. Mustaqil ishni tashkil etish

Mustaqil ishlar talaba maʼruzada berilgan mavzularni yanada chuqurroq oʻzlashtirishni, dasturda boʻlgan, lekin maʼruzada berilmagan maʼlumotlarni oʻrganish maqsadida beriladi.

Mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlar seminar, laboratoriya ishlari va kurs ishi uchun tayyorgarlik koʻrish soatlaridan tashqari tuzilgan. Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanadi:

- darslik va oʻquv qoʻllanmalari boʻyicha fan boblari va mavzularini oʻzlashtirish;

- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari va mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o'quv-ilmij-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.

Uyga berilgan vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan foydalanib yangi ma'lumotlarni mustaqil o'rganish, internet tarmoqlaridan foydalanib kerakli ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.

1. Qadimgi turkiy bitiktoshlar ustida kuzatishlar olib borish; ularning asli, transkripsiyasi, mazmunini muqoyasa qilish.

2. Bilga xoqon bitigtoshi matnidagi sof turkiy so'zlarni aniqlash.

3. O'ngin bitigtoshi matnidagi leksik qatlamni belgilash.

4. Kultegin bitigtoshi matnidagi so'z yasovchi affiksalar.

5. Mo'yuchur bitigtoshi matnidagi qo'shma va juft so'zlar.

6. Kulichur bitigtoshi matnidagi tub so'zlar.

7. "Oltun yoruq"dagi so'z birikmalari.

8. O'zbek tiliga xos bo'lmagan tovushlarni ifodalovchi harflar ishtirok etgan so'zlarni yozish.

9. Mustaqil o'qish uchun: Atoiy g'azallari matni ustida ishlash.

10. Sakkokiy g'azallari matni ustida ishlash.

11. Lutfiy g'azallari matni ustida ishlash.

12. Navoiy g'azallari, asarlari matni ustida ishlash.

13. Bobur g'azallari, asarlari matni ustida ishlash.

14. Mashrab she'riy asarlari matni ustida ishlash.

15. Gulxaniy she'riy asarlari matni ustida ishlash.

16. Nodira she'riy asarlari matni ustida ishlash.

17. Uvaysiy she'riy asarlari matni ustida ishlash.

18. Ogahiy she'riy asarlari matni ustida ishlash.

19. Muqimiy she'riy asarlari matni ustida ishlash.

20. Furqat she'riy asarlari matni ustida ishlash.

21. Zavqiy she'riy asarlari matni ustida ishlash.

22. Maxmur she'riy asarlari matni ustida ishlash.

23. Avaz O'tar she'riy asarlari matni ustida ishlash.

24. Fitrat asarlari matni ustida ishlash.

25. Qodiriy asarlari matni ustida ishlash.

26. Avloniy asarlari matni ustida ishlash.

27. O'zbek tilining o'rganilishi.

28. O`zbek tilining qiyoslanishi.
29. O`zbek tili tarixini davrlashtirishga oid turkologiyadagi qarashlar.
30. Otlarda bo`lishsizlik shakli.
31. Vosita kelishigi.
32. Fe`ldan sifat yasovchi affikslar.
33. Sifatlarda belgining ortiqligi yoki kamligini ifodalovchi shakllar.
34. Birgalik va gumon olmoshlari.
35. Aniqlik mayli.
36. Hozirgi (hozirgi-kelasi), o`tgan va kelasi zamon.
37. Ravishlarda daraja formasi.
38. Sifatdosh oboroti.
39. Ravishdosh.
40. Harakat nomi oborotlari.
41. So`z birikmasi. So`z birikmasi shakllari.
42. Boshqaruv munosabatga kirishga so`zlar va ularning leksik-grammatik xususiyatlari.
43. Bitishuv munosabatga kirishgan so`zlar.
44. Moslashuvli birikma.
45. Izofa. Izofali birikma.
46. Uyushiq bo`laklar.
47. Gap bo`laklarining tartibi.
48. Undalma.
49. Kirish so`zlar.
50. Bog`langan qo`shma gapni tashkil etishda teng bog`lovchilarning roli.
51. Ko`chirma gap.
52. "Devonu lug`otit turk"ning tuzilishi.
53. "Devonu lug`otit turk"dagi etnonimlar.
54. "Devonu lug`otit turk"dagi harakat fe`llari.
55. "Devonu lug`otit turk"da yordamchi so`zlar.
56. "Devonu lug`otit turk"da etnografizmlar aksi.
57. "Qutadg`u bilig"dagi nisbiy sifatlar.
58. "Hibatul-xaqoyiq"dagi onomastika.
59. "Qisasi Rabg`uziy"dagi arxaizmlar.
60. "Attuhfa"da qipchoq shevasiga xos belgilar.
61. "Attuhfa"ning lug`at tuzilishi.
62. "Attuhfa"da o`zlashma qatlam leksikasi.
63. "Guliston bit-turkiy" matnidagi forsiy izofalar.
64. "Xusrav va Shirin" dostonidagi o`g`uzcha elementlar.
65. "Muhabbatnoma" matnidagi so`zlarning o`zaro bog`lanishi.

66. "Muhokomatul-lug`atayin"dagi ma`nodosh so`zlar.
67. "Muhokomatul-lug`atayin"dagi shakldosh so`zlar.
68. "Mezonul-avzon"dagi qo`shiq nomlari.
69. "Boburnoma" dagi mo`g`ulcha o`zlashmalar.
70. Bobur she`riyatidagi asl turkiy so`zlar.
71. "Shayboniynoma" asaridagi ijtimoiy terminlar
72. "Shayboniynoma" asaridagi siyosiy terminlar.
73. "Shayboniynoma" asaridagi harbiy terminlar.
74. "Shajarayi turk" asaridagi etnonimlar.
75. Ogahiy tarixiy asarlaridagi sintaktik konstruksiyalar.
76. Munis g`azallaridagi turkiy izofa.
77. Furqat she`riyatidagi ruscha o`zlashmalar.
78. Muqimiy asarlaridagi majoziy so`zlar.
79. "Turkiston viloyati" gazetasi matnidagi neologizmlar.
80. Milliy uyg`onish davri adabiyoti asarlaridagi okkozionalizmlar.

Izoh: Ishchi dasturni shakllantirish jarayonida mustaqil ta`lim soatlari hajmiga asoslanish, mavzulardan tanlab foydalanish, mustaqil ishni bajarish jarayonida belgilangan ko`rsatmalarga amal qilish tavsiya etiladi.

VII. ASOSIY VA QO`SHIMCHA O`QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov G`., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. - T.: O`qituvchi, 1982.
2. Abdurahmonov G`., Shukurov SH., Mahmudov Q. O`zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008.
3. Aliyev A., Sodiqov Q. O`zbek adabiy tili tarixidan. -T.: O`zbekiston, 1994.
4. Rahmonov N., Sodiqov Q. O`zbek tili tarixi. - T.: O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009.
5. Tursunov U., O`rinboev B., Aliev A. O`zbek adabiy tili tarixi. - T.: O`qituvchi, 1995.
6. Muxtorov A., Sanaqulov U. O`zbek adabiy tili tarixidan. -T.: O`qituvchi, 1995.
7. Sanaqulov U. O`zbek adabiy tili tarixining ilk davrlari. -T.: G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uy, 2004.
8. Saidov Yo. O`zbek adabiy tili tarixi. -T.:, 2021.

QO`SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag`ishlangan majlisidagi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so`zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
2. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Ma`naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - Toshkent: O`zbekiston, 2011.
4. Abdushukurov B. Qisasi Rabg`uziy leksikasi. - T.: Akademiya, 2008.
5. Abdurahmonov G`, Rustamov A. Alisher Navoiy tilining grammatik xususiyatlari. -T., 1981.
6. Abdurahmonov G`, Shukurov Sh. O`zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T., 1973.
7. Айдаров Г. Язык орхонских памятников древнетюркской письменности VIII века. Ата-Ата, 1971.
8. Баскаков Н. Тюркские языки. - М., 1960.
9. Батманов И. Язык Енисейских памятников древнетюркской письменности. Фрунзе, 1959.
10. Bafoyev B. Navoiy asarlari leksikasi. - T., 1985.
11. Dadaboyev H. Tarixiy harbiy terminlar. - T.: Universitet, 2008.
12. Dadaboyev H., Hamidov Z., Xolmanova. O`zbek adabiy tili leksikasi tarixi (XIU asr ikkinchi yarmi - XX asr boshi). -T.: Fan, 2007.
13. Jumaniyozov R. Eski o`zbek yozuvi. - T.: O`qituvchi, 1989.
14. Is`hoqov F. Eski o`zbek tili va yozuvi. - T.: O`qituvchi, 1995.
15. Кононов А. Грамматика языка тюркских рунических памятников VII-IX вв.. -Л., 1980.
16. Mahmudov Q. XIII – XIV turkiy yozma obidalar tilining fonetik sistemasi. -T.: Fan, 1990.
17. Mahmudov Q. O`zbek tilining tarixiy fonetikasi. -T.: Ijod nashriyot uyi, 2006.
18. Muxtorov J., Sanaqulov O`. O`zbek adabiy tili tarixi. - T.: O`qituvchi, 1995.
19. Sanaqulov U. O`zbek adabiy tili tarixining ilk davrlari. – T.: G`afur G`ulom, 2004.
20. Fozilov E. O`zbek tilining tarixiy morfologiyasi. - T., 1965.
21. Xolmanova Z. “Boburnoma” leksikasi. - T., 2007.
22. XIII-XIV asrlar turkiy adabiy yodgorliklar tili. Morfologiya. –T., 1986.

23. XV-XIX asrlar o'zbek tili morfologiyasi. – T., 1990.

24. Фазылов Э. Будапештская рукопись «Гуль и Навруз» Лютфи. - Т., 2006.

Internet saytlari

1. uz.wikipedia.org
2. jspi.uz
3. ziyouz.com
4. library.navoiy-uni.uz
5. arxiv.uz
6. arm.sies.uz
7. e-library.namdu.uz
8. uzbektili.zn.uz
9. samdu.uz
10. hozir.org
11. <http://www.natlib.uz>
12. terdu.arm.uz
13. tersu.uz
14. <http://library.zivonet.uz>

8.	Termiz davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
9.	Fan/modul uchun mas'ullar: Amanturdiyev N. – TerDU, O'zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Xolnazarov U. – TerDU, O'zbek tilshunosligi kafedrasini o'qituvchisi, f.f.f.d., PhD.
10.	Taqrizchilar: Sh.Bobomurodova – TISU, "Gumanitar fanlar" kafedrasini dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. B.Qilichev – BuxDU, "O'zbek tilshunosligi" kafedrasini dotsenti, filologiya fanlari doktori.